



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No2



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, fevral.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukurimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikrarov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirathbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA LOYIHALARINI KREDITLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	40
Faxriddinov Temur Faxriddin o'g'li	
TEMIR YO'L YO'LLARINI TA'MIRLASH KORXONALARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI.....	46
Allabergenov Sherzod Maksudbayevich	
BANKLARNI TRANSFORMATSIYALASH JARAYONIDA INVESTITSION KREDITLASHNING XORIJ TAJRIBASI.....	51
Tuxsanov Eldor Dilmurod o'g'li	



BANKLARNI TRANSFORMATSIYALASH JARAYONIDA INVESTITSION KREDITLASHNING XORIJ TAJRIBASI

Tuxsanov Eldor Dilmurod o'g'li

TDIU, mustaqil izlanuvchisi

E-mail: elldor96@gmail.com

ORCID: 0009-0000-9661-9884

Annotatsiya. Mazkur maqolada banklarni transformatsiyalash jarayonida investitsion kreditlashni samarali tashkil etish bo'yicha xalqaro tajriba tahlil qilinadi. Rivojlangan davlatlar bank tizimida qo'llanilayotgan transformatsiya modellari, raqamli texnologiyalarni joriy etish amaliyoti, risklarni boshqarishning zamonaviy yondashuvlari hamda investitsion loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarining ustun jihatlari o'rganilgan. Shuningdek, xorijiy banklarda investitsion kredit portfellarini shakllantirish amaliyoti O'zbekiston bank sektorini modernizatsiya qilish jarayonida tatbiq etilishi mumkin bo'lgan samarali yechimlar bilan qiyosiy tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: bank transformatsiyasi, investitsion kreditlash, xalqaro tajriba, moliyaviy barqarorlik, risk-menejment, kredit portfeli, bank modernizatsiyasi.

Abstract. This article analyzes international experience in the effective organization of investment lending within the context of banking sector transformation. It examines transformation models applied in the banking systems of developed countries, the implementation of digital technologies, modern risk management approaches, and mechanisms for financing investment projects. In addition, the study provides a comparative assessment of investment credit portfolio formation practices in foreign banks and identifies effective solutions that can be applied to the modernization of Uzbekistan's banking sector.

Key words: bank transformation, investment lending, international experience, financial stability, risk management, credit portfolio, banking modernization.

Аннотация. В статье анализируется международный опыт эффективной организации инвестиционного кредитования в условиях трансформации банковского сектора. Рассматриваются модели трансформации, применяемые в банковских системах развитых стран, практика внедрения цифровых технологий, современные подходы к управлению рисками, а также механизмы финансирования инвестиционных проектов. Кроме того, проводится сравнительный анализ практики формирования инвестиционных кредитных портфелей в зарубежных банках с возможными решениями, применимыми в процессе модернизации банковского сектора Узбекистана.

Ключевые слова: трансформация банков, инвестиционное кредитование, международный опыт, финансовая устойчивость, риск-менеджмент, кредитный портфель, модернизация банков.

KIRISH

So'nggi yillarda jahon moliyaviy bozorlari va bank tizimida kechayotgan tub o'zgarishlar kreditlash jarayonini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqishni talab qilmoqda. Raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, global iqtisodiy integratsiyaning chuqurlashuvi hamda makroiqtisodiy xavflarning ortib borishi banklar oldiga yangi strategik vazifalarni qo'yimoqda. Xususan, investitsion kreditlash bank faoliyatining eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, real sektorni modernizatsiya qilish, innovatsion loyihalarning moliyaviy ta'minotini kuchaytirish va iqtisodiy o'sishning barqarorligini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda rivojlangan davlatlar banklari transformatsiyaning zamonaviy modellari — korporativ boshqaruvni takomillashtirish, kredit risklarini chuqur baholash tizimlarini joriy etish hamda investitsion loyihalarni moliyalashtirishda diversifikatsiyalashgan yondashuvlardan keng foydalanmoqda. Ularning tajribasi



shuni ko'rsatadiki, investitsion kreditlash samaradorligi bank tizimining texnologik darajasi, risk-menejment tizimining yetukligi hamda kredit portfelining sifatli boshqarilishiga bevosita bog'liqdir.

O'zbekiston bank sektorida ham transformatsiya jarayonlari izchil amalga oshirilmoqda. Xususan, xususiylashtirish jarayonlarini jadallashtirish, raqamli bank xizmatlarini kengaytirish, kredit portfeli sifatini oshirish hamda xalqaro standartlarga mos boshqaruv mexanizmlarini joriy etish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan. Shu nuqtai nazardan, ilg'or xorijiy tajribani o'rganish va uni milliy bank tizimi sharoitiga moslashtirish investitsion kreditlash samaradorligini oshirishda muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Banklarni transformatsiyalash jarayonida investitsion kreditlash samaradorligini oshirish masalalari xorijiy olimlar tomonidan keng ko'lamda tadqiq etilgan. Ularning ilmiy qarashlari bank tizimini modernizatsiya qilish, risklarni boshqarish hamda kredit portfeli sifatini yaxshilash kabi yo'nalishlarda muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

J. Stiglitz banklar tomonidan kredit ajratish jarayonida ma'lumotlarning yetarli emasligi yoki assimetrikligi kredit sifati va investitsion loyihalarning samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi. Olimning fikricha, banklar qarz oluvchilarning moliyaviy holatini to'liq va aniq tahlil qila olmagan taqdirda investitsion loyihalarning qaytimi pasayadi. Shu bois bank tizimida tahlil jarayonlarini takomillashtirish, raqamlashtirish va shaffoflik darajasini oshirish zarur hisoblanadi.

R. Levine moliyaviy tizimning rivojlanishi mamlakat iqtisodiy o'sishining asosiy omillaridan biri ekanini ilmiy jihatdan asoslaydi. Uning talqiniga ko'ra, banklarda transformatsiya jarayonlarining chuqurlashuvi, yangi kredit mahsulotlarini joriy etish hamda boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish investitsion kreditlash hajmi va samaradorligini oshiradi. Bu jarayonlar iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishiga xizmat qiladi.

T. Beck bank tizimidagi islohotlar samaradorligi raqobat muhitining kuchayishi va boshqaruv madaniyatining yaxshilanishi bilan bevosita bog'liq ekanini qayd etadi. Uning fikricha, bank tizimidagi ochiqlik va institutsional tartiblilik investitsion kreditlarning o'z vaqtida qaytishini ta'minlaydi. Shuningdek, kredit portfelini diversifikatsiyalash iqtisodiy xavflarni kamaytirishda muhim omil hisoblanadi.

F. Mishkin banklar faoliyatida zamonaviy texnologiyalarni joriy etish investitsion kreditlash jarayonining tezligi, aniqligi va shaffofligini oshirishini asoslaydi. Uning fikricha, rivojlangan raqamli infratuzilma kredit monitoringini takomillashtiradi, bu esa investitsion loyihalarning samarali amalga oshirilishiga xizmat qiladi.

M. Rustamov rivojlanayotgan mamlakatlarda investitsion kreditlar hajmi banklarning moliyaviy barqarorligi, xususan, tavakkalchiliklarni boshqarish tizimining qay darajada samarali ishlashiga bog'liq ekanini ko'rsatadi. Olim kredit siyosatini aniq belgilash, qarz oluvchilarni baholash mezonlarini takomillashtirish hamda nazorat mexanizmlarini kuchaytirish muhimligini ta'kidlaydi.

Mazkur olimlarning ilmiy qarashlaridan kelib chiqib aytish mumkinki, bank tizimida transformatsiya jarayonlarini kengaytirish, kredit jarayonlarini raqamlashtirish hamda risklarni boshqarish mexanizmlarini mustahkamlash investitsion kreditlash sifatini oshirishning eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda banklarni transformatsiyalash jarayonida investitsion kreditlashning xorij tajribasini o'rganish uchun ikkilamchi ma'lumotlardan foydalanildi. Tadqiqot ma'lumotlari xalqaro moliyaviy institutlar hisobotlari, yetakchi xorijiy banklar faoliyati bo'yicha ochiq statistik ma'lumotlar, ilmiy maqolalar hamda rasmiy tahliliy sharhlardan olindi. Shuningdek, rivojlangan davlatlar bank tizimida investitsion kreditlash amaliyotiga oid normativ-huquqiy hujjatlar va konseptual modellar tahlil qilindi. Olingan ma'lumotlarni qayta ishlash jarayonida qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv va mantiqiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Xususan, turli mamlakatlarda qo'llanilayotgan investitsion kreditlash mexanizmlari, risklarni boshqarish yondashuvlari va kredit portfeli shakllantirish amaliyoti o'zaro solishtirildi. Tadqiqot natijalarini tahlil qilish orqali O'zbekiston bank tizimini modernizatsiya qilish jarayonida tatbiq etilishi mumkin bo'lgan samarali xorijiy tajribalar aniqlandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Dunyo bank amaliyoti investitsion kreditlashni takomillashtirishda turli mamlakatlar yondashuvlarining sezilarli darajada farqlanishini ko'rsatadi. Rivojlangan davlatlar bank tizimida amalga oshirilayotgan transformatsiya jarayonlari, kredit siyosati hamda moliyaviy boshqaruv mexanizmlarini tahlil qilish O'zbekiston uchun ham dolzarb hisoblanadi. Ushbu tajribalarni mahalliy sharoitga moslashtirish iqtisodiy rivojlanishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin (1-jadval).



1-jadval. Rivojlangan davlatlarda investitsion kreditlashning asosiy xususiyatlari

Mamlakat nomi	Investitsion kredit siyosati	Baholash mezonlari	Transformatsiya darajasi	Afzalliklari	Kamchiliklari
AQSH	Kredit qarorlari raqamli tizim orqali qabul qilinadi; risklar chuqur tahlil qilinadi	Mijozning moliyaviy holati, biznes modeli, bozor sig'imi	Yuqori — to'liq raqamlashtirilgan	Kredit ajratish tezligi yuqori, tahlil aniq	Kredit olish talablari yuqori, kichik biznesga qiyin
Yevropa Ittifoqi	Davlat va xususiy banklar hamkorligi keng; maxsus rivojlanish banklari mavjud	Loyiha daromadliligi, ekologik talablar, tarmoqlar bo'yicha ustuvorlik	O'rta va yuqori	Barqaror moliyalashtirish, preferensiyalar ko'p	Hujjat talablari ko'p, jarayon sekin
Janubiy Koreya	Texnologik loyihalarga ustuvorlik, innovatsion biznesni qo'llab-quvvatlash	Innovatsionlik darajasi, eksport salohiyati	Juda yuqori	Raqamlashtirilgan jarayon, samaradorlik yuqori	Kichik korxonalar uchun talablar qattiq
Yaponiya	Uzoq muddatli investitsion kreditlar, bank—korxona hamkorligi kuchli	Loyiha davomiyligi, korxonaning barqarorligi	Yuqori	Kredit qaytimi barqaror, monitoring kuchli	Jarayon sekin, konservativ yondashuv

1-jadvaldan ko'rinadiki, rivojlangan davlatlarda investitsion kreditlash tizimi o'zaro sezilarli darajada farqlanadi. AQSH modeli kreditlarni raqamli tahlil asosida tezkor ajratilishi, yuqori texnologiyalarga tayanishi hamda risklarni oldindan aniqlash imkoniyatining kuchliligi bilan ajralib turadi. Ushbu yondashuv kredit jarayonining shaffofligi va aniq baholanishini ta'minlasa-da, moliyaviy talablarning yuqoriligi kichik biznes subyektlari uchun cheklov bo'lishi mumkin.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida investitsion kreditlashning asosiy ustunligi davlat va xususiy sektor hamkorligiga asoslangan moliyalashtirish modelidir. Bu yondashuv yirik va uzoq muddatli loyihalarni barqaror qo'llab-quvvatlash imkonini bersa-da, hujjatlashtirish jarayonining murakkabligi kredit olish muddatini uzaytiradi.

Janubiy Koreya tajribasi texnologik yangiliklar, innovatsion biznesni qo'llab-quvvatlash hamda kredit jarayonlarining to'liq raqamlashtirilgani bilan ajralib turadi. Ushbu tizim moliyalashtirish jarayonini tezlashtiradi va iqtisodiy o'sishni jadallashtiradi. Biroq qoidalar va talablarning qat'iyligi ayrim korxonalar uchun moslashuv jarayonini murakkablashtiradi.

Yaponiyada esa uzoq muddatli kreditlash, bank va korxona o'rtasidagi yaqin hamkorlik hamda loyihalarni muntazam monitoring qilish amaliyoti ustuvor hisoblanadi. Ushbu yondashuv kreditlarning qaytimi uchun yuqori kafolat yaratsa-da, jarayonning konservativligi kredit ajratish sur'atining pasayishiga olib keladi (2-jadval).

2-jadval. Xorijiy tajribaning O'zbekiston uchun ahamiyatli jihatlari

Tajriba manbasi	O'zbekiston uchun mos elementlar	Tatbiq etish imkoniyati
AQSH	Kredit baholash jarayonini to'liq raqamlashtirish	Yuqori
Yevropa Ittifoqi	Davlat—xususiy bank hamkorligi, rivojlanish banklari modeli	O'rta
Janubiy Koreya	Innovatsion loyihalarga ustuvorlik berish	Yuqori
Yaponiya	Uzoq muddatli investitsion kreditlash, bank monitoring tizimi	Loyiha muvaffaqiyati oshadi, kredit qaytimi kafolatlanadi



2-jadvaldan ko'rinadiki, xorijiy mamlakatlar tajribasi O'zbekiston bank tizimini modernizatsiya qilish jarayonida bir nechta ustuvor yo'nalishlarni shakllantirishga xizmat qilishi mumkin. Avvalo, AQSH tajribasida qo'llanilayotgan raqamlashtirilgan kredit baholash tizimi O'zbekiston uchun eng mos va qisqa muddatda joriy etilishi mumkin bo'lgan yo'nalishlardan biridir. Chunki kredit ajratish jarayonida inson omilining qisqarishi, qaror qabul qilish tezligining oshishi hamda kredit portfeli sifatining yaxshilanishi ta'minlanadi.

Yevropa Ittifoqi tajribasida mavjud bo'lgan davlat va xususiy banklar hamkorligi hamda rivojlanish banklari modeli O'zbekiston sharoitida infratuzilma, energetika, transport va qishloq xo'jaligi kabi yirik loyihalarni barqaror moliyalashtirish uchun qo'llanilishi mumkin. Biroq ushbu yondashuvni to'liq tatbiq etish huquqiy va institutsional bazani yanada takomillashtirishni talab qiladi.

Janubiy Koreya tajribasida innovatsion va texnologik loyihalarga ustuvorlik berish O'zbekiston iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish jarayonida ayniqsa muhim ahamiyatga ega. Ushbu yo'nalish mamlakatda axborot texnologiyalari, sanoat texnologiyalari hamda qayta ishlash tarmoqlarining jadal rivojlanishiga xizmat qilishi mumkin.

Yaponiya tajribasida bank va korxona o'rtasidagi uzoq muddatli hamkorlik tamoyili, muntazam monitoring va mas'uliyatli yondashuv investitsion loyihalarning muvaffaqiyat darajasini oshirishga yordam beradi. O'zbekistonda banklar va kredit oluvchilar o'rtasidagi o'zaro ishonchni mustahkamlash ushbu yondashuvni tatbiq etishni yanada osonlashtiradi. Umuman olganda, 2-jadvaldan kelib chiqadigan xulosa shundan iboratki, har bir xorijiy tajriba O'zbekiston uchun ma'lum darajada mos keladi va ularni uyg'unlashtirish investitsion kreditlash tizimini sezilarli darajada yaxshilashi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xorijiy tajribalarni tahlil qilish O'zbekiston bank tizimida investitsion kreditlashni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi. Rivojlangan davlatlar amaliyotida qo'llanilayotgan raqamlashtirish, davlat-xususiy hamkorligi, innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash hamda monitoring tizimini kuchaytirish kabi mexanizmlar investitsion kreditlar samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. O'zbekiston sharoitida ushbu yondashuvlar bank tizimini transformatsiyalash jarayonida muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Stiglitz, J. E., & Weiss, A. (1981). Credit rationing in markets with imperfect information. *American Economic Review*, 71(3), 393–410.
2. Levine, R. (1997). Financial development and economic growth: Views and agenda. *Journal of Economic Literature*, 35(2), 688–726.
3. Beck, T., Demirgüç-Kunt, A., & Levine, R. (2000). A new database on financial development and structure. *World Bank Economic Review*, 14(3), 597–605.
4. Demirgüç-Kunt, A., & Levine, R. (2008). Finance, financial sector policies, and long-run growth. *World Bank Policy Research Working Paper No. 4469*.
5. Mishkin, F. S. (2009). *The Economics of Money, Banking, and Financial Markets*. Pearson Education.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
